

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

HAZRATI ALI HAQIDAGI O‘ZBEK XALQ QISSALARIDA TARIXIY VOQELIK VA BADIY TALQIN

(“Xaybar qissasi” misolida)

Farruh BAFOYEV,

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
farruxshod@mail.ru*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290724>

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga mansub bo‘lgan hazrati Ali turkumidagi xalq qissalarida tarixiy voqelik talqini tadqiq etilgan.

Tahlil jarayonida diniy-tarixiy manbalarga, xususan, Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Tarixi Muhammadiy”, Safiyurrahmon Muborakfuriy “Ar-Rahiqul Mahtum”, Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusufning “Islom tarixi” hamda “Hadis va hayot” kabi asarlariga tayanilgan.

Kalit so‘zlar: xalq qissasi, tarixiy manbalar, variant, versiya, tarixiy haqiqat, badiiy to‘qima.

Аннотация: В статье исследуется интерпретация исторической действительности в народных рассказах узбекского фольклора, относящихся к циклу о Хазрати Али.

В процессе анализа мы опирались на религиозно-исторические источники, в частности, на такие произведения, как «Тарихи Мухаммадий» Алихонтюра Согуний, «Ар-Рахикуль Махтум» Сафиуррахмана Муборакфурий, а также «История ислама» и «Хадис и жизнь» шейха Мухаммада Садыка Мухаммада Юсуфа.

Ключевые слова: народные повести, исторические источники, вариант, версия, историческая правда, вымышленная изобретение.

Annotation: The article examines the interpretation of historical reality in the folk narratives of Uzbek oral literature belonging to the cycle of Hazrat Ali.

During the analysis, reference was made to religious and historical sources, in particular to works such as Tarikhi Muhammadiy by Alikhontura Soguniy, Ar-Raheeq al-Makhtum by Safiyurrahman Mubarakpuri, as well as The History of Islam and Hadith and Life by Shaykh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf.

Keywords: folk tale, historical sources, variant, version, historical truth, fiction.

O‘zbek folkloridagi qissaxonlik an‘anasining go‘zal namunasi bo‘lgan xalq qissalarida tarix va ijodkor xalq fantaziyasi o‘zaro sintezlashib, yangi bir voqelikni vujudga keltirgan. Xo‘sh, ulardagi tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima chegarasi qayerda? Tarixiy voqelik talqini qanday? Shu savollarga tadqiqot obyektimiz bo‘lgan hazrati Ali turkumidagi xalq qissalari misolida javob izlasak.

Mazkur turkumga oid qissalarni ularda aks etgan voqeliklarning tarixiy asosi bor yoki yo‘qligiga ko‘ra, shartli ravishda ikkiga bo‘lib o‘rganish mumkin. Birinchi guruhga tarixiy voqealar asosida yuzaga kelgan “Xaybar jangi”, “Uhud jangi”,

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

“Hazrati Alining imom Muhammad Hanifaning xalos etishlari” kabi qissalarni kiritish mumkin. Ikkinchi guruhga to‘qima, xalqning mifologik qarashlari, xayoliy uydurmalar asosida yuzaga kelgan “Ajdar devning hazrati Ali tomonidan halok etilishi”, “Hazrati Ali tomonidan Anqoning o‘ldirilishi”, “Hazrati Ali tomonidan Qattolning o‘ldirilishi” kabi asarlarni kiritish mumkin. Albatta, sof tarixiy qissalarda ham muayyan o‘rinlarda tarixiy haqiqatdan chekiniladi. Ammo buning ham o‘z chegarasi bo‘lishi kerak, albatta. Shuning uchun ham Husayn Voiz Koshifiy qissaxonlik va roviylik shartlarini sanar ekan, uni nazm bilan qo‘shib manzur qilish hamda yolg‘on-yashiq aralashtirib, el nazaridan qolmaslik lozimligini ta’kidlaydi [Хамроев Д. 4:48].

Endi esa hazrati Ali qissalarida tarixiy voqelik talqinini “Xaybar jangi” qissasi misolida ko‘rib chiqsak. Nomlanishidan ko‘rinib turganidek, qissada islom tarixida mashhur bo‘lgan janglardan biri haqida so‘z yuritiladi. Xaybar Madinaning g‘arbiy-shimoliy tarafida joylashgan shahar bo‘lib, karvon yurishida to‘rt kunlik yo‘l edi. “Tarixi Muhammadiy”da keltirilishicha, u yerda Rasulullohga dushmanligi eng qattiq bo‘lgan yahudiylar har yoqdan qochib kelib to‘planishgan, butun kuchlari bilan Islom diniga qarshilik ko‘rsatuvchi yahud fitnachilarining bayrog‘i ham aynan shu joyda ko‘tarilgan edi. Ularning raislari esa Rasulullohga qarshi boshqa qabilalar ichida tashviqot yurgizib, shuning orqasidan Xandaq urushi kelib chiqishiga sabab bo‘lishgan edi. Ammo u urushda ularning maqsadi ro‘yobga chiqmagan, natijada esa el orasida yana fitna tarqatib, buzg‘unchilik qila boshlashgan, shu sababli bunday vaziyatda ularga qattiqroq zarba berib, boshqalarga siyosat ko‘rsatish lozim bo‘lib qolgan edi [Соғуний А. 1:344]. Xullas, shu tariqa Xaybar jangi yuzaga kelgandi. Ammo ushbu urushning kelib chiqishi “Xaybar” qissada biroz boshqacharoq ifodalanadi. Unda aytilishicha, mazkur yurishga Muhammad alayhissalomga Alloh taolodan kelgan vahiy sabab bo‘ladi: “... bir kun Sayyidi olam masjidida o‘ltirub erdilar, yakbora ovozi shahpari Jabroil alayhissalom qulog‘lariga keldi. Gilim boshlarig‘a tortdilar. Jabrail alayhissalom aydilar: “Yo Muhammad, xudoying salom aydi, salomdan keyin farmon uldurki, Xaybarga boring. Har kim imon keltursa amon bering, vagarna imon kelturmasa, boshini tanidan judo qiling...” [Хазрати Али ҳақидаги қиссалар. 2:3]. Muhammad alayhissalomning hech bir ishni Allohning iznisiz – yo to‘g‘ridan to‘g‘ri vahiy, yoki ko‘ngillariga solishi, belgi berilishi – qilmaganlarini hisobga olganda bu boshlanma ham qissaga o‘ziga xoslik bag‘ishlaganini ta’kidlab o‘tish kerak. Bundan tashqari tarixiy manbalarda kelgan yuqoridagi tafsilotlarni berish epik asar boshlanmasi uchun zerikarli bo‘lishi mumkin

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

edi. Shunday qilib, qissadagi vahiy kelishi voqeasidan keyin musulmon askarlari yo‘lga otlanadilar. (Qissada ularning adadi uch ming edi, deyilsa, ba’zi tarixiy manbalarda bir ming olti yuz [Соғуний А. 1:344], ba’zilarida bir ming to‘rt yuz nafar [Шайх Муҳаммад Содиқ. 6:280] deb ko‘rsatiladi). Muayyan muddat o‘tib Xaybarga yetib bordilar. Qissaning shu o‘rnida Xaybar qal’asi ta’rifi beriladi. Emishki, Xaybarda o‘n adad podishoh (Marhab, Ankabut, Zulxumor, Umar, Antar, Hishom, Osim, Xantala, Ka’b, Sham’un), yettita qal’a (Kabta, To’im, Shaq, Qamis, Latotir, Satx, Salosil [Ҳазрати Али ҳақидаги қиссалар. 2:92]) bor edi. Qissadagi bu tafsilotni muayyan ma’noda tarixiy manbalar ham tasdiqlaydi. Xususan, Safiyurrahmon Muborakfuriyning siyrat kitobida ham Xaybar ikki qismdan iborat ekanligi, birinchi qismi beshta qal’adan (No’im, Sa’b ibn Muoz, Zubayr, Ubay, Nazor qal’alari) iborat ekanligi, avvalgi uch qal’a “Natot” deb nomlangan mintaqada, qolgan ikkitasi esa “Shaqq” deb nomlangan mintaqada joylashgani haqida ma’lumot beradi. Bundan tashqari “Katiba” deb nomlangan ikkinchi qismi ham o‘z o‘rnida uch qal’adan (“Qamus”, “Vatih”, “Sulolim”) iborat ekanligi haqida so‘z boradi [Муборакфурий С. 5:373]. Xullas, qissada Xaybar ahli islom lashkari kelganini eshitib, barchalari tomoshaga chiqadilar. Ammo o’sha kun islom lashkari, odatga ko‘ra, hujum qiladigan shahar - Xaybar yaqinida qo‘nim topib, tonggacha dam olishadi, ertasi kun bomdod namozini o‘qib jangga kirishishadi. “Islom tarixi” kitobida payg‘ambar Muhammad alayhissalomning bu odatlari, ya’ni g‘azot uchun yo‘lga chiqib, manzilga yetib kelishgach o’sha yurt ostonasida subh kirishini kutishlarining sababi quyidagicha izohlanadi: “Payg‘ambar sallallohu alayhi vasallam qay bir qavmga qarshi g‘azot qiladigan bo‘lsalar, subh kirishini kutar edilar. Agar o’sha joyda bomdod azonini eshitsalar, urush qilmas edilar. Rasullulloh Xaybarda ham shunday qildilar. Tunda dam oldilar. Ertalab azon eshitilmadi. Shunda turib ulovlariga mindilar. Askarlar ham ulovlarini minib, jangga hozir bo‘ldilar va Xaybar tomon yurish boshladilar” [Шайх Муҳаммад Содиқ. 6:280]. Albatta, muayyan rivoyatlarga asoslanib keltirilgan ushbu fikrlar tafsiloti qissada berilmasa-da, real tarixdan xabardor inson kichik ishoralardan mazkur voqeliklarni anglab olishi mumkin.

Qissada Xaybar g‘azoti tarixi bilan bog‘liq manbalarda ismi uchramaydigan ba’zi qahramonlar ham borki, ularni xalq badiiy tafakkurining mahsuli ekanligi ayonlashadi. Masalan, Xaybar jangida hazrati Ali bilan jang qilgan ikki kofir pahlavonlar - Umar va Antar, Xaybar podishohlari sifatida tilgan olingan podishoh Ankabut, Zulxumor, Umar, Antar, Hishom, Osim, Xantala, Ka’b, Sham’un kabilarni

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

bunga misol qilish mumkin. Qissadagi real tarixiy shaxslarga Muhammad alayhissalom, sahobalar Abu Bakr Siddiq, Ali ibn Abu Tolib, Usmon ibn Affon, Salmon Forsiy, Bilol, Xolid, sahobiya Safiya binti Huyay kabilarni keltirish mumkin. Qissadagi asosiy urg‘u esa o‘z o‘zidan sahobalar orasidan Ali ibn Abu Tolib va uning jasoratiga qaratiladi. Qissada hikoya qilinishicha, Xaybar jangi yigirma kun davom etadi va Muhammad alayhissalomning topshiriqlariga ko‘ra, har kuni islom lashkarlaridan biri alamdor, ya‘ni bayroqni jangga olib kiruvchi bo‘ladi. Masalan, birinchi kun Abu Bakr Siddiq alamdor bo‘lgani haqida hikoya qilinsa, yigirmanchi kuni Alloh taoloning buyrug‘i bilan hazrati Ali bayroqdorlik qiladi. Muhammad alayhissalomdan duo olib, Zulfiqorni beliga taqib, Duldulga minib yolg‘iz o‘zi urush maydoniga kirgan hazrati Ali dastlab kofir pahlavonlardan Antar bilan jang qiladi. Avval uni musulmonlikka da‘vat qiladi, dinga kirmagach, qilichi bilan halok qiladi. Navbat ikkinchi kofir pahlavon Umarga keladi. U bilan ham shu hol takrorlanadi. So‘ng hazrati Ali Xaybar shahri qal‘asining darvozasini qo‘porib olib, shahar devorlari atrofida qazilgan xandakka ko‘prik qiladi va musulmon askarlari shaharga kirib, ba‘zi yahudiylarni o‘ldiradi, ba‘zilari qochadi, ba‘zilari musulmon bo‘ladi. Shu tariqa musulmon lashkarlari Xaybarni qo‘lga kiritib, u yer podishohining qizi malika Safiya Allohning izni ila Muhammad alayhissalomga nikohlanadi. Qissadagi bu tafsilotlarning ba‘zilari tarixiy fakt bo‘lsa, ba‘zilari badiiy to‘qima mahsulidir. Qissadagi hazrati Ali bilan bog‘liq detallarga e‘tibor qaratsak, ularning aksariyati tarixiy manbalarda qayd etilganini kuzatish mumkin. Masalan, yuqorida hazrati Alining ushbu jangga kirishi va jasorati haqida ayrim fikrlarni keltirdik. Xo‘sh, bular qay darajada haqiqatga yaqin? Shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq “Hadis va hayot” kitobida Xaybar g‘azoti haqida so‘z ketganda, mazkur shahardagi qal‘alardan biri bo‘lgan “Al-Qasum”ni fath qilish musulmonlar uchun og‘ir bo‘lgani, bir necha hujumlar foyda bermagach, navbatdagi hujumdan so‘ng Muhammad alayhissalom sahobalarga qarata quyidagicha murojaat qilganlarini keltirib o‘tadi: “Ertaga bayroqni, albatta, Alloh va Uning Rasuli yaxshi ko‘radigan kishi oladi. Unga fath nasib bo‘ladi”, dedilar. Katta sahobalarning har biri o‘sha odam o‘zi bo‘lishini umid qila boshladilar. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam hazrati Ali roziyallohu anhuri chaqirdilar. O‘sha paytda hazrati Ali roziyallohu anhurining ko‘zlari og‘rib qolgan edi. Hazrati Ali keldilar. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam u kishining ko‘zlariga tuflagan edilar, xuddi xasta bo‘lmagandek bo‘lib qoldilar. U zot(Muhammad alayhissalom - F.B.) bayroqni u kishiga berdilar. Shunda hazrati Ali: “Ular ham biz kabi bo‘lgunlaricha ularga qarshi urush qilaman”, dedilar”[Шайх Мухаммад Содик.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

7:223]. Ko‘rinib turganidek, ikki shayx rivoyat qilgan mazkur hadis mazmuni xalq qissasi tafsilotlari juda uyg‘un. Ushbu tahlillardan shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy voqealar asos qilib olingan hazrati Ali turkumidagi xalq qissalari syujetida badiiy to‘qimadan ko‘ra real tarixiy voqealar ustun turadi. Demak, mazkur turdagi asarlarni ijod etilishida ishonchli tarixiy manbalar asos bo‘lgan. Bu qissalar orqali oddiy xalq nafaqat estetik zavq olgan, balki o‘z dini tarixini o‘rgangan va o‘zidan keyingi avlodlarga o‘rgatgan. Qissaxonlik an‘anasining bir necha asrlar davomida qadriyat sifatida yashab qolishiga sabab ham ularning ana shu ko‘pfunksiyaviyligi bo‘lsa, ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алихонтўра Соғуний. Тарихи Муҳаммадий. – Тошкент: Munir, 2021. – Б.344.
2. Hazret-i Ali Cenklari. (2016). Hazırlayan: İsmail Toprak. –İstanbul.
3. Ҳазрати Али ҳақидаги қиссалар (1992). Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: С.Рафиддинов. –Т.:Ёзувчи.
4. Ҳамроева Д. Маноқиб ва тарихий ҳақиқат // Ўзбек тили ва адабиёти. –2003. № 4. – Б.48.
5. Сафийорраҳмон Муборақфурий. Ар-Раҳикул Маҳтум (Муҳрланган жаннат шароби) / Нашрга тайёрловчи: Муҳаммадбобур Муҳиддинов. – Тошкент: Matbaachi, 2024. – Б.373.
6. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф (2022). Ислом тарихи. 1-китоб. –Т:“HILOL-NASHR”.
7. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт. Усмон ва Али ибн Абу Толиб. розияллоху анхумо. 22-жуз. –Т:“HILOL-NASHR”, 2021. –Б.223.